

INTERNET SAYTLARIDA YANGI SO'ZLARNING TARJIMA USULLARI VA
ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

Ilxamov B.B

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

Abstract: Ushbu tezis Internet diskursdagi tarjima muammolarini o'rganish, tarjima metodlarini qo'llash va uni amaliyotda joriy etishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: diskurs, neologizm, transformatsiya, kalkalash, transliteratsiya.

Hozirgi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Tabiiyki, ushbu jarayonda barcha tillarga yangi so'zlar kirib keladi va natijada tarjimaga bo'lgan talab ortib boradi. Asl matnlarning madaniy jihatlarini tushunish, matnning asosiy xabarini tushunish va bunday xabarni samarali yetkazish turli madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish uchun zarur hisoblanadi. Shu ma'noda tarjima sintaktik, semantik strategiyalar hamda ijtimoiy yondashuvlarni qo'llashda turli madaniyatlarni yetkazishni talab qiluvchi real hayot amaliyotiga asoslanadi.

Ijtimoiy hayotda til o'zini namoyon qiladi va shu jamiyatning a'zolari ayni tildan umumiy foydalanishadi. Shu sababli, ijtimoiy ko'nikmalarga e'tibor qaratilib, tarjimonlar turli xil matnlardagi turli madaniyatlarni tushunish uchun o'zlarining ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishlari kerak. Tarjima birligi matnning so'z va jumlar bo'yicha tili bo'libgina qolmay, balki shu matnning rivojlangan madaniyati ham hisoblanadi. Matn madaniyatini tushunish tarjima vazifasini o'z ichiga olgan xabarni kodlashtirish jarayonlarini o'rganishni talab qiladi.

Neologizmlarni tarjima qilishning umumiy usullari haqida gapirganda, biz V.N. Komissarov tomonidan taklif qilingan tasnifga amal qilamiz va u quyidagi usullarini aniqlaydi:

- 1) Transkripsiya - aslyatning leksik birligini ko'zda tutilgan til harflari yordamida uning tovush shaklini qayta yaratish orqali tarjima qilish usuli;
- 2) Transliteratsiya – aslyatning lug'aviy birligini o'rganilayotgan til harflari yordamida uning grafik shaklini qayta yaratish yo'li bilan tarjima qilish usuli;
- 3) Kal'kalah - aslyatdagi leksik birlikni uning tarkibiy qismlari- morfema yoki so'zlarni (turg'un so'z birikmalarida) TT (tarjima tili) dagi leksik muvofiqlari bilan almashtirish orqali tarjima qilish usuli;
- 4) Eksplikasiya yoki tavsifiy tarjima - leksik-grammatik transformasiya, bunda ChT(chet tili)ning leksik birligi uning ma'nosini tushuntiruvchi ibora bilan almashtiriladi, ya'ni bu ma'noni TTda ko'p yoki kam tarzda to'liq tushuntirish yoki ta'rif berish usuli.

Leksik neologizmlarni tarjima qilishda dastlabki uchta usul yaxshi deb hisoblaymiz, ayniqsa, affiksasiya yo'li bilan yasalgan neologizmlar uchun, chunki ular allaqachon mavjud so'zlardan tuzilgan bo'ladi. U yoki bu affiks ularga faqat ma'lum bir tus beradi. D. Karnedi fikriga ko'ra, ko'pincha eksplikasiya yoki tavsifiy tarjima neologizmni bir tildan boshqa tilga o'tkazishdagi yagona mumkin bo'lgan usul deb hisoblaydi.

Ya.A. Olefirning yozishicha, tarjimon ba'zan affiksasiya yo'li bilan yasalgan neologizmlarni tarjima qilganda, agar bu butun matn mavzusiga zid bo'lmasa, u yoki bu affiksni to'liq transkripsiya orqali tarjima qilishi mumkin deb aytadi [8, 23].

N.V Chigina, transkripsiya va transliteratsiya har doim o'zaro bog'liq deb hisoblaydi. Transliteratsiya elementlari ma'lum bir leksik birlikni transkripsiya qilishda ham o'zini his qiladi, bu quyidagida ifodalangan:

- talaffuz qilinmaydigan tovushlarni transliteratsiya qilish
- qisqartirilgan unilarning transliteratsiyasi
- qo'sh undoshlarning uzatilishi
- talaffuzning bir nechta variantlari mavjud bo'lsa, grafikaga eng yaqin variantni tanlash.

References:

1. Алимов, В.В. Теория перевода. Перевод в сфере профессиональной коммуникации, 2011.
2. Бархударов, Л.С. Язык и перевод [Текст] / Л.С. Бархударов. – М.:
3. Karnedi, D. The Translation of Neologisms: Challenges for the Creation of New Terms in Indonesian Using a Corpus-based Approach [Электронный ресурс] / D. Karnedi. – URL: <http://www.ijser.org/paper/The-Translation-of-Neologisms-Challenges-for-the-Creation-of-New-Terms.html>
4. Нелюбин Л.Л. Введение в технику перевода (когнитивный теоретико-прагматический аспект). М.: Изд-во Флинта: Наука, 2009.